

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida Surxondaryo viloyati xizmatlar sohasining rivojlanishi


Iqtisodiyotda xizmatlar sohasi o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabilalar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'atlari

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'atlari


Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6437,3 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 781,8 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,5 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорligи va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	6437,3	103,5
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	314,3	108,2
Moliyaviy xizmatlar	1270,1	128,6
Transport xizmatlari	1030,7	102,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	982,9	100,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	184,7	86,4
Savdo xizmatlari	2488,9	99,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	163,4	85,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	238,7	124,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	75,8	101,2
Ijara xizmatlari	151,3	90,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	161,6	90,8
Shaxsiy xizmatlar	167,3	90,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	61,8	71,4
Boshqa xizmatlar	128,7	85,7

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning ulushi 38,7 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (19,7 %) transport xizmatlari (16,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (4,9 %) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning tarkibi (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)

Eng yuqori ulush



Eng past ulush



Savdo xizmatlari

38,7 %

39,2 %



Moliyaviy xizmatlar

19,7 %

16,0 %



Transport xizmatlari

16,0 %

16,5 %



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

4,9 %

5,1 %



Ta'lim sohasidagi xizmatlar

3,7 %

3,0 %



Yashash va ovqalanish xizmatlari

2,9 %

3,5 %



Yanvar-oktabr 2019- y.




Yanvar-oktabr 2020- y.



Shaxsiy xizmatlar

2,6 %

3,0 %



Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari

2,5 %

2,9 %



Ko'chmas multk xizmatlari

2,5 %

3,1 %



Ijara xizmatlari

2,3 %

2,7 %



Boshqa xizmatlar

2,0 %

2,4 %



Sog'liqni saqlash xizmatlari

1,2 %

1,2 %



Memorchilik sohasidagi xizmatlar

1,0 %

1,4 %


Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'lmagan o'sishi kuzatildi hissasi 1,0 %

Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining, ularning ulushi atigi 1,2 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'limgan ulush ijara sohasidagi xizmatlar – 2,3 %, kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar - 2,5 %, ga to'g'ri keldi.

Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (28,6 %), Ta'lim sohasidagi xizmatlar (24,8 %), shuningdek aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (8,2 %) transport xizmatlari (2,2 %), Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar (1,2 %) da qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmogda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi



Dastlabki ma'lumotlar


Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi sezilarli darajada (28,6 % ga), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (14,4 % ga), boshqa xizmatlar (14,3 % ga), Yashash va ovqatlanish xizmatlari (13,6 % ga), shaxsiy xizmatlar (9,2 %) pasayishi qayd etildi.

Transport sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining sezilarli darajada pasayishiga qaramay, xizmatlarning umumiyligi hajmida ularning ulushi ustun bo'lib qolmoqda – 16,0 %.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida yuk tashish katta ulushga ega.

Transport xizmatlarining tashish turlari bo'yicha tarkibi

(2020-yil yanvar-oktabr oylarida)



2020- yil yanvar-oktabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 33,9 % ga yetdi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 66,1 % ni tashkil etdi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rinni tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtaSIDagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumi hajmida savdo xizmatlarining ulushi 38,7 % ni tashkil etib, bu 2488,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumi savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismiga, aniqrog'i 82,5 % iga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 13,7 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 3,8 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi 1270,1 mlrd. so'mni - tashkil etdi.


Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning hajmi 904,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi.



Ularning umumiyligi hajmidagi ulushi 19,7 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar- oktabr oylarida ularning ulushi 16 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini 365,5 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.



Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 28,6 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar- sentabr oylarida ularning o'sish sur'ati 164,6 % ga yetgan.

Moliyaviy xizmatlar hajmi

- moliyaviy vositachilik hisobidan olingen foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.


Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratish uchun innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan raqamli banklar va ularning bo'linmalarining faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)


Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 95,3 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 3,6 % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiyligi moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 1,1 % ni tashkil etadi.



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari




2020- yilning yanvar-oktabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 314,3 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagи xizmatlarning o'sish sur'ati 108,2 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmdagi ulushi 4,9 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi



Aloqa va axborotlash-tirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekom-munikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va bosh-qalar) egallab, 96,1 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar – 1,2 %, boshqa aloqa xizmatlari – 0,2 %, axborot sohasidagi xizmatlar – 0,8 %, shuningdek, noshirlik xizmatlari – 1,7 % dan tashkil etdi.

2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, telekommunikatsiya xizmatlarining 9,3 % ga yuqori o'sishi kuzatilmoqda.

Taqqoslash uchun: 2019- yil yanvar-oktabr oylarida ularning o'sishi 110,2 % ni tashkil etdi.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 238,7 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 3,7 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 24,8 % ni tashkil etdi.




Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 86,4 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 184,7 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiylajmi hajmidagi ulushi atigi 2,9 % ni tashkil etdi.



2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan turar joy va umumiylajmi ovqatlanish xizmatlari hajmi 13,7 mlrd. so'mga kamaydi.

Dastlabki ma'lumotlar

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

- oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 92,7 % bilan ustunlik qiladi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 7,3 % ni tashkil etdi.

Ko'rileyotgan davrda, resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Termiz shahri ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 406,2 mlrd. so'mga oshdi va 2979,3 mlrd. so'mga yetdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	
		2020- y.	2018- y.
Surxondaryo viloyati *	6437,3	103,5	111,0
Termiz sh	2979,3	105,3	115,2
tumanlar:			
Oltinsoy	172,4	101,8	105,9
Angor	154,6	100,4	104,4
Bandixon	40,5	101,5	0,0
Boysun	135,6	101,9	105,3
Muzrabot	215,2	101,9	104,2
Denov	1129,9	103,0	113,4
Jarqo'rg'on	214,3	101,6	105,7
Qumqo'rg'on	231,6	102,1	104,7
Qiziriq	162,2	101,0	104,9
Sariosiyo	250,7	100,9	106,3
Termiz	151,0	100,3	107,6
Uzun	175,7	102,4	104,9
Sherobod	195,8	100,9	105,3
Sho'rchi	228,5	102,7	105,0

* hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda

Dastlabki ma'lumotlar

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Termiz (2979,3 mlrd. so'm), Denov (1129,9 mlrd. so'm), Sariosiyo (250,7 mlrd. so'm) va Qumqo'rg'on (231,6 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Ma'lumki, zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2430,8 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,3 % ni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmi - 2 430,8 ming so'm

O'sish sur'ati, 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan - 101,3 %

Hajmning o'sishi, 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan - 248,2 ming so'mga

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'm (2020-yilning yanvar-oktabr oylarida)



Ushbu xizmatlar hajmi ko'rsatkichi hududlar o'rtaida Termiz shahrida 16478,4 ming so'mdan Bandixon tumanida 535,4 ming so'mgacha oralig'ida bo'ladi.

Ushbu mintaqada aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ko'rsatkichi nisbatan pastligi bu hududda aholi sonining yuqori ko'rsatkichlariga bog'liqligidir.

Taqqoslash uchun: Boysun tumanida o'rtacha doimiy aholi soni (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida 116,2 ming kishini tashkil etdi) uncha ko'p bo'lmasada, biroq aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi nisbatan yuqori. Ko'rib chiqilayotgan davrda u 1166,9 ming so'mni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdonligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi.


Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

Dastlabki ma'lumotlar

**2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra,
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



**2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020-yilning 1-noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi – 60,8 %, sanoat – 16,0 %, qurilish – 10,0 % ga yetdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi 13,2 % ga to'g'ri keldi.

Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (44,9 %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 10,4 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 5,4 % ga yetdi.




Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,9 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 2,4 % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2019- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 12,5 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari – 39,3 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 10,5 %, tashish va saqlash – 6,1 %, axborot va aloqa – 1,9 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,6 %, hamda boshqa turdag'i xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 39,6 % ni tashkil etgan.

2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining ko'payishi va o'sishi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



O'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2,6 mingtaga ko'paydi.

Taqqoslash uchun: 2019- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, ularning soni 12,5 mingtaga ko'paygan.

Dastlabki ma'lumotlar

Kuzatilayotgan davrning o'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasidagi yuqori o'sishi – 38,4 % ekanligi aniqlandi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1,9 mingtaga ko'paydi va 6,8 mingtaga yetdi.



Shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq faoliyatda ham o'sish kuzatildi – 19,1 %. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 0,2 mingtaga ko'paydi va 1,6 mingtani tashkil etdi.

2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi 75,5 % ga to'g'ri keladi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, ularning ulushi 70,9 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2020- yilning 1- noyabriga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020- yilning 1- noyabriga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2553 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 11394 tani tashkil etdi va o'sishi esa 28,9 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiyligi sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 54,3 % ga yetdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxona va tashkilotlar sonining ulushi 58,9 % ekvivalentida qayd etildi.



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ijobjiy natijalari xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal etishda uning rolini oshirish bilan uzviy bog'liqdir.

Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Tel: (76) 225-65-91

Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

2020- yil
yanvar-oktabr